

RELIYALARNI TILSHUNOSLIK ILMIDA O'RGANILISHI HAMDA
TADQIQOTLAR TADRIJI
THE STUDY OF RELATIONS IN LINGUISTICS AND THE PROGRESS
OF RESEARCH
ИЗУЧЕНИЕ ЯЗЫКОВЫХ ОТНОШЕНИЙ В ЛИНГВИСТИКЕ И
ПРОГРЕСС ИССЛЕДОВАНИЙ

Nematova Surayyo Faxriddin qizi
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti
e-mail:nematovasurayyo2000@gmail.com
ORCID:0009-0007-8806-3688

Annotatsiya: Maqolada realiya tushunchasining paydo bo'lishi, fanga kirib kelishi bosqichlari haqida so'z yuritiladi. Realianing asl ma'nosiga turli xil olimlarning turli xil qarashlari fanda joriylashtirilganligining nazariy asoslari keltirib o'tilgan. Tilshunoslikda realiyalarning tutgan o'rni va tarjimashunoslikda realiyalar muammosi ham bir qancha misollar bilan yoritilgan. Shuningdek, realiya birliklarining xalq turmush tarzi dunyoqarashi va madaniyati bilan aloqadorligi va ularning lug'at boyligini oshirishda milliy koloritni aks ettirishda tutgan o'rni izohlangan. Realialarni o'rganish bilan bog'liq tadqiqotlar doirasini kengaytirish o'ziga xos ahamiyat kasb etishi haqida ham keltirib o'tilgan. Maqola so'ngida misollardan kelib chiqqan holda realianing tarjimashunoslikdagi ahamiyati va eng muqobil tarjima usuli bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: realiya, xos so'zlar, lingvokulturologiya, antroposentrik paradigma, milliy kolorit, tilshunoslik, tarjimashunoslik, ekvivalent.

Abstract: The article discusses the emergence of the concept of relia and the stages of its introduction into linguistic scholarship. It presents the theoretical foundations underlying the incorporation of various scholarly interpretations of the original of meaning of realia, as proposed by different researchers in the field. The relationship of reality units with the worldview and culture of the people's lifestyle and their role in reflecting the national color in increasing the wealth of vocabulary are also explained. It is also mentioned that expanding the scope of research related to the study of realities is of particular importance. The article concludes with the importance of reality in translation studies and the most alternative translation method based on examples.

Key words: anthropocentric paradigm, realia units, term, literary text, linguculturology, national color, realia, linguistics, translation, equivalent.

Аннотация: В статье рассматривается возникновение понятия «реалия» и этапы его внедрения в лингвистическую науку. Представлены теоретические основы включения различных научных интерпретаций первоначального значения слова «реалия», предложенных разными исследователями в этой области. В статье также рассматривается взаимосвязь единиц реальности с мировоззрением и культурой

образа жизни людей, а также их роль в отражении национального колорита и расширении словарного запаса. Отмечается также важность расширения области исследований, связанных с изучением реальности. В заключение статьи подчеркивается значение реальности в переводе и предлагается наиболее альтернативный метод перевода на примерах.

Ключевые слова: антропоцентрическая парадигма, элементы реалий, термин, литературный текст, лингвострановедение, национальный цвет, реалии, национальный колорит, лингвистика, переводоведение, эквивалент.

KIRISH

Jahon tarjimashunosligida yaratilgan ko'xna asarlarda ma'lum bir davrga yoki ma'lum bir joyga oid so'zlar, narsalar, hodisalar va tarixi yaqqol aks ettiriladi. Shu jihatdan asarlardagi realiyalar yillar davomida bosqichma bosqich o'zgarib kelmoqda va tilshunos olimlar tomonidan o'rganilib kelmoqda. Realija lotincha tildan olingan bo'lib "ashyo, dalil, moddiy" degan manolarni anglatadi. Mashhur rus tilshunos olimasi O.C. Axmonova "Linguistic terms dictionary" da realiyaga quyidagicha izohlaydi: "realija deganda – borliqdagi ashyoviy madaniyat natijasi, mumtoz grammatikada esa, muayyan mamlakatning davlat qurilishi, muayyan xalqning tarixi va madaniyatini ifodolovchi so'zlar, ma'lum bir tilda muloqot qilish xususiyatlarini ifodolovchi lingvistik birlik tushuniladi"[3.381]. Realija tushunchasi ma'lum bir madaniyatning milliy koloritini aks ettiradi degan fikr XX-asrning 50- yillarida kirib keldi. Shundan keyin ko'pgina turli xil davlatlardagi tilshunos olimlar turli xil nazariyalar ustida ishlab turli xil xulosalarga kelishdi. Xulosalardan biri : realiyaga ikki xil nuqtaiy nazar bilan qarash birinchisi tarjimashunoslik ikkinchisi mamlakatshunoslik. Ayniqsa rus tilshunoslar realiyalar haqida yetarlicha nazariy fikrlar bilan chiqishgan jumladan: tilshunos va tarjimashunos olim M. L. Weisburd nazariyasiga ko'ra realiyaga mamlakatshunoslik asnosida yondashib, bu to'g'risida quyidagilarni aytadi: " Bu ma'lum bir mamlakat ijtimoiy va madaniy xayoti voqealari, ijtimoiy korxona yoki tashkilotlar, kundalik narsa va buyumlar, tarixiy shaxslar hamda boshqa ko'plab narsalar nomlaridan iborat tushunchadir" [8, 98]. Yana boshqa ko'pgina tilshunos olimlar ham realija to'g'risida o'z fikrlarini bildirib xulosalar chiqarishadi jumladan: lingvistik tarjimashunoslikning eng yirik izlanuvchilaridan L. S. Barkhudarov anchagina yaqin va mos ta'rif bergan : " Realiyalar – shunday so'zlarki ular boshqa tilda gaplashuvchi xalqlarning tillarida amaliy hayotlarida mavjud bo'lmagan leksik birliklar hisoblanadi: [6. 95]. Yana bir taniqli sovet va rus tilshunosi A. B. Fyodorov yuqoridagi fikrga qarshi nazariya bilan chiqadi. Uning qarashicha , realiyalar faqat so'zlar emas balki muayyan xalqning xayotidagi narsa

peredmet va voqea hodisalarning nomini ifodolovchi soʻz va soʻz birikmalari boʻlishi mumkin. Bunda tilshunos olim realiyalar haqida emas balki real hayotda mavjud narsalarning nomlari haqida gapirishni tavsiya qiladi [33. 123]. Maʼlum bir mamlakat bitta realiyani qayta qayta qoʻllayversa, u albbat lugʻat tarkibiga kiritiladi. Shuning uchun bunday soʻzlarni oʻzlashgan soʻzlar deb hisoblanadi. Tarjima jarayonida esa istalgan realiyani realiya deb va unga izoh tavsif berilmaydi. Realialar qoʻllanilgan matnni tarjimon mahoratidan yillar davomida toʻplagan bilimlaridan kelib chiqib realiya deb hisoblaydi yoki lugʻatga kiritilgan holatini realiya emasligini izohlaydi. Yanada kengroq aniq va izchil gʻoyalar bilan bolgar tilshunos tarjimashunos olimlari S. Vlahov va S. Florinlar sahnaga chiqishgan. Bu olimlarning aytishlariga koʻra: “Realialar- muayyan bir xalqning hayoti, turmushi, urf-odatlar, madaniyati, ijtimoiy taraqqiyotiga oid narsalar , predmetlar, voqea hodisalarni ifodolovchi soʻz va soʻz birikmalari boʻlib, ular milliy va davriy xususiyatga egadirlar.” [10. 48]. Yuqorida keltirilgan fikrlar va maʼlumotlarga tayangan holda, realiya yaʼni xos soʻzlar maʼlum bir millatga yoki dingagina mansub boʻlib, ular oʻsha maʼlum bir millatni madaniyatini turmush tarzini aks ettiradigan tarixiy bogʻliq boʻlgan hamda davrga ham moslashadigan jihatlari bilan namoyon boʻladigan soʻz va soʻz birikmalaridir. Realialar lisoniy hodisa hamda lisoniy boylik hisoblanib ularga nafaqat tarix oʻz taʼsirini koʻrsatadi, balki jamiyatdagi voqea hodisalar ham taʼsir qiladi. Misol qilib keltiradigan boʻlsak, realia-neologizm, realiya- arxaizm, realia- istorizmlar kabilardir. Bugungi kunda tilimizga kirib kelayotgan va oʻzlashib qolayotgan realialar neologizmlardir. Istoriizmlar esa oʻlgan realialardir. Hozirgi kunda juda ham kam ishlatiladigan amma haliham mavjuq yoʻq boʻlib ketmagan realialar arxaizmlardir. Realialarning eng farqli jihati ham milliy ham tarixiy koloritni oʻzida mujassamlashtirganligi hisoblanib matnda qoʻllanilganda ham tarjima qilganda ham eng chiroyli maʼno eng chiroyli tarjimini berish kerak deb oʻylayman, chunki realiya shunday xos soʻzlarki uni qoʻllashga ham katta mahorat talab qiladi tarjima qilish ham. Asl matndagi qoʻllanilgan realialarni maʼnosini chiqarish uchun tarjimonda koʻp narsalar talab qilinadi izlanishlar, lugʻatlardan foydalanishlar, oʻsha mamlakatni borib yashab kelgandek txattoki tarixida yashab kelgandek mahorat bilan yondashishi talab etiladi.

Oʻrganilish metodologiyasi. Tilshunoslikda antroposentrik paradigmani sirasiga kiradigan lingvokulturologiya yoʻnalishining asosiy markaziy tushunchalaridan biri bu realialardir. Realia til orqali milliy madaniyatni ifodolovchi vosita sifatida qaraladi. Realialar maʼlum bir millatga xos boʻlib shu millatni haqiqiy madaniyatini turmush tarzini ochib beradi.

Tarjimashunoslikda ham realialar juda muhim ahamiyatga ega boʻlib asliyat matndagi maʼlum bir millatni naqadar maʼnaviy boyligi ayniqsa shu xalqning

milliy ruhini o'zida singdirgan realiyalarni keng ko'lamda berilishi tarjimon uchun ham zavqli ham murakkab jarayondir. Tarjimashunoslikda realiyalarni tarjima qilishning bir qancha usullari mavjud bo'lib misollar bilan tahlil qilamiz. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, tarjima matnlari haqidagi tadqiqot yo'nalishlaridan qiyosiy tahliliy komponent tavsifiy kabi usullardan foydalanilgan. Turli xil olimlar tarjimashunoslar madaniy kontekstni va lingvistik moslashuvni muhimligiga urg'u qaratgan holda realiyalarni tarjima qilishning turli xil strategiyalarini ishlab chiqishdi.

Tahlil va natijalar. Transkripsiya yoki translitiratsiya – asliyat matndagi realiya matn ichida tarjima qilinmaydi va to'gridan to'g'ri asliyat matn tilida yoziladi va matn oxirida jadval ko'rinishida izohlar berib boriladi.

Kalkalash- asliyat matndagi so'z , birikma yoki iborani tarkibiy qismlarini so'zma so'z tarjima qilishdir, tarkibiy qism o'zgarmaydi ammo yangi ma'no kelib chiqishi mumkin.

Ekvivalentlash – asliyat matndagi realiya tarjima qilinadigan matn tiliga ekvivalent variantini tanlash, judayam yaqin ma'nodagi so'z tanlab qo'yish.

Tafsiriy tarjima – realiya ma'nosi to'gridan to'g'ri tarjima berish o'rniga izohlab tafsirini berish.

Tushirib qoldirish yoki qisqartirib tarjima qilish – asliyat matnda bazi so'zlarni tushirib qoldiriladi ammo mano saqlanib qolaveradi yoki muhim bo'lmagan element bo'lishi ham mumkin. Realialarni matnda ishlatilishi va turli xil usullar orqali ingliz tiliga tarjimasini berish bo'yicha misollar bilan keltiramiz. Mahshur qirg'iz yozuvchisi Chingiz Aytmatovning "Bo'tako'z" qissasida Markaziy Osiyo xalqlariga tanish bo'lgan so'z "shiypon" so'zini ishlatgan, ammo bu so'z G'arb mamlakatlariga umuman notaniish bo'lib etnografik realiya deb olsak bo'ladi.

"Shiyponni yaqinroqqa ko'chirishga urinib ko'rdik, ammo u ham suv bilan bog'liqda." Ch. Aytmatov "Bo'tako'z"

We tried to move the shiypon closer, but it was also connected with water supply. {shiypon -is open-sided rural shelter where is placed in fields.}

Birinchi tarjimada shiypon realiyasi translitiratsiya usulida berilib matnda to'g'ridan to'g'ri ko'chirildi va pastdan izoh qilib berildi.

We tried to move the open-sided farm shelter closer, but it was also connected with water.

Bu tarjimada esa tavsifiy usul qo'llanib matnni o'zida shiypon so'ziga izoh qilib tarjima qilindi.

We tried to move shelter closer, but it was also connected with water.

Bunda esa ekvivalent variant ishlatildi, ammo ma'no jihatdan haqiqiy milliy kolorit yo'qoldi

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, tarjima jarayoni judayam mashaqqatli bo'lib o'quvchi uchun aniq tushunarli haqiqiy ma'noni saqlab qolib milliy koloritni ham ochib berishni talab qiladi. Realialarsiz asar yorqin jarangdor bo'la olmaydi, shu bilan bir qatorda Tajima qilishda ham shu yorqinlikni rangdorlikni saqlab qolish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir ishlatilgan realiya ham katta ma'noni beradi befarq bo'lmaslik zarur. Realialar bazi holatlarda narsa buyum ashyolar sifatida ishlatilsa, bazi holatlarda esa milliy qadriyatlar va munosabatlar ko'rinishida ham realiya hodisasi ifoda etadi. Realialar milliy-madaniy muhit belgilari hisoblanib qadriyatlar ifodasi sifatida badiiy matnda alohida ruh ohangdorlik bag'ishlaydi. Realialarsiz badiiy asar rangdor bo'la olmaydi va yozuvchi mahorati to'liqligicha ochilmaydi oquvchiga ham ta'sir qilish kamayadi kutilgan natijani bermaydi. Yozuvchi ijodkor sifatida bir asar yaratar ekan uni ta'sirli rangdor qilaolmasa bu yozuvchining kamchiligi hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki har qanday badiiy asarda realiya dan foydalanish tabiiy. Ko'zlangan tilga tarjima qilish jarayonida esa to'g'ri tasnif berish zarur hisoblanadi. Badiiy asarlardagi milliy xususiyatlarni belgilab beradigan vositalar realiya bo'ladi. Badiiy asarda yaratigan davrning ijtimoi-ma'naviy muhitidan oziqlanadiva shu sababli unda davr insonlarining ruhiy holati muayyan darajada aks etadi bu esa asarni yanada rangdor qiladi

Realialar o'zlashgan so'zlar sifatida boshqa xalqlarning urf-odatlar, madaniyati va turmushiga kirib ketishlari kuzatiladi. Realialar xalqning dunyoqarashiga ham bog'liq holda paydo bo'ladi. V. Chernovning fikriga ko'ra realialarning muhim xususiyati ularning ommabopligi ko'pchilik tomonidan ishlatilishi asliyat tilidagi ko'pchilikga ma'limligi yoki aksincha tarjima tili o'quvchilariga notanishligi bilan xarakterlanadi.

Xulosa va takliflar. Shuni aytib o'tish joizki, realiya bu oddiy so'z emas, realiya tarjimasi milliy tarixiy kolorit sifatida qaraladi. O'zbek tarjimashunosligida bu bo'yicha juda ko'p izlanishlar qilingan ko'pgina olimlar o'z ishlarida yoritishgan. Haqiqattan ham, realialarning muhim xususiyati ular ifodalaydigan predmet xususiyatidan kelib chiqadi. Muayyan xalqning turli tarixiy davrdagi hayot tarzi, ijtimoiy iqtisodiy tarqqiyoti realialarning mohiyatiga albatta o'z ta'sirini ko'rsatadi. G'. Salomovning realialarga bo'lgan munosabatida ko'proq quyidagi jihatlarga ahamiyat qaratiladi: "realialar nafaqat muayyan xalq, balki uning ma'lum bir tabaqasiga ham mansub bo'lishi mumkin. Dunyo xalqlari tanavul qiladigan taomlarning ular e'tiqod qiladigan din yoki boshqa narsalar bilan bog'liqligi. Muayyan sanalarning turli xalqlarda har xil talqin qilinishi. Ko'rishganda o'zaro salomlashish to'grisidagi holatlar. Tarjimashunoslikda mana shu jihatlarni hisobga olgan holda asliyat matnni tarjima qilinadigan matnda aniq yaqqol ko'rsata bilish zarur. Realiani tarjima qilishda tarjimon nafaqat asliyat

tilini, balki turli xarakterdagi exstralingvistik bilimlar, xususan' boshqa madaniyatning o'zigaxos xususiyatlari an'analari, urf-odatlar, nutqiy etiket me'yorlari' paralingvistik vositalarini yaxshi egallagan bolishi lozim. Muayyan xorijiy mamlakatda yashagan va uning realiyalari bilan yaxshi tanish bo'lgan kishigina mazkur mamlakat haqida batafsil lingvomadaniy sharhlarni bera oladi, shundagina tarjimon muayyan madaniyatdagi narsa yoki hodisalarni tasvirlashda lingvoetnik to'siqlarni yenga oladi. Maqoladan keltirilgan misollardan kelib chiqib translitiratsiya kabi usullardan mohirona foydalanilsa albatta ko'zlangan natijani beradi ya'ni asliyat tildan tarjima tiliga bemalol to'g'ri tasnif beriladi. Demak tarjimon mutaxassislarni shakllantirishda lingvistik kompetensiyaga alohida ahamiyat berish lozim. Lingvistik kompetensiya ona tilini mukammal o'zlashtirish asosida shakllanadi. Ona tilini o'zlashtirish shunchaki kommunikatsiya emotsional-ekspressiv funksiyalardan foydalanish emas balki madaniy munosabatlarni qadriyatlarni anglash asosiga qurilmog'i lozim hisoblanadi. Ona tilida mukammal bilimga ega bo'lgan mutaxassis boshqa til lingvistik kompetensiyasini taqqoslay oladi va madaniy kontekstda o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Сов. Энциклопедия, 1969. – 608 с.
2. Tomakhin G. D. - Realities - Americanisms. Manual on regional studies: Textbook for institutes and faculties of foreign languages / Tomakhin G. D. М.: Higher school, 1988. - 239 p.
3. Fenenko N. A. - Language of realities and realities of language / N. A. Fenenko VSU. - Voronezh, 2001. - 140 p.
4. Fedorov A.V. - Fundamentals of the General Theory of Translation. / Fedorov A.V. Moscow: Higher School, 1983. – 303
5. Бархударов Л.С. Язык и перевод. – М.: Международные отношения, 1975. – 230 с.
6. Влахов С., Флорин С. Непереводимые в переводе. – Москва: Просвещение, 1986.
7. Саломов Ғ. Таржима назариясига кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978 йил.
8. Саломов Ғ. Таржима ташвишлари. – Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – 190 б.
9. Ashurova D.U. & Galieva M. R. (2019). Cultural Linguistics. Uzbekistan State World Languages University.

10. Venuti L. Translation changes everything: Theory and practice. – New York: Routledge, 2013.
11. Proshina Z. G. Theory of translation. – 3rd ed. – Vladivostok: Far Eastern University Press, 2008.
12. Newmark P. More Paragraphs on Translation/ P. Newmark. - Multilingual Matters, 1998. P 226.
13. Воробьев В.В. Лингвокультурология. -М.: РУДН, 2008.